

Xo'janddagi xotin-qizlar forumi: birdamlik, rivojlanish va yangi tashabbuslar



Joriy yilning 31-mart - 1-aprel kunlari Tojikistonning Xo'jand shahrida O'zbekiston va Qirg'iziston davlat rahbarlarining tashriflari doirasida "Navro'z - birdamlikni ulug'lovchi ayollar bayrami" mavzusida Xalqaro ayollar forumi b'olib o'tdi. Forumda Tojikiston, O'zbekiston va Qirg'iziston vakillari ishtirok etdilar.

Tadbirning asosiy maqsadi ayollarning madaniy an'analar va qadriyatlarni asrash, tinchlikni mustahkamlash hamda tadbirkorlikni rivojlantirishdagi rolini muhokama qilish, shuningdek, kasbiy tajriba almashish uchun imkoniyatlar yaratishdan iborat edi.

Forumda so'zga chiqqan SMTI direktori o'rinbosari Shafquat Nurullayeva Tojikiston, Qirg'iziston va O'zbekiston o'rtasidagi davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risidagi shartnoma imzolanishi diplomatiyaning tarixiy g'alabasi va siyosiy iroda namunasi ekanligini ta'kidladi. "Bu hatto eng murakkab masalalarni ham muloqot, o'zaro hurmat va ishonch orqali hal qilish mumkinligini isbotlaydi", dedi u.

Ushbu hodisa nafaqat uch davlatning, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasining izchil rivojlanishi, barqarorligi va farovonligini mustahkamlashga xizmat qilishi alohida qayd etildi.

Tadbirning asosiy mavzusiga o'tar ekan, Sh.Nurullayeva ayollarning iqtisodiy faolligiga e'tibor qaratdi va ularning biznesdagi o'rni yangi bosqichga ko'tarilganini hamda jadal sur'atda o'sishda davom etayotganini ta'kidladi.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti ma'lumotlariga tayanib, mutaxassis ayollar jahon iqtisodiyotida band bo'lganlarning deyarli yarmini, umumiy jahon yalpi ichki mahsulotining esa 37 foizini tashkil etayotganini ta'kidladi. Ayollar tadbirkorligi jahon biznesining muhim qismiga aylandi. Ekspertlarning bashoratlariga

ko'ra, erkaklar va ayollarning iqtisodiy jarayonlarda teng huquqli ishtirokini ta'minlash 2025-yil oxiriga kelib jahon yalpi ichki mahsulotini chorak qismga oshirishi mumkin.

Shu o'rinda SMTI direktori o'rinbosari Sh.Nurullayeva mazkur jahon tendensiyalari O'zbekistonda ham o'z aksini topayotganini, ayollar faolligini oshirish uchun aniq qadamlar qo'yilayotganini ta'kidlab o'tdi.

Birinchidan, SMTI vakiliga ko'ra, "O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida ayollarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi faolligini oshirish, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tengligini mustahkamlash, shuningdek, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamlı chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda ayollar tadbirkorligi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayollar kichik biznes sohasida faol ishtirok etib, mahalliy, mintaqaviy va milliy darajalarda iqtisodiyotni rivojlantirishga va aholi farovonligini oshirishga sezilarli hissa qo'shmoqdalar.

Ikkinchidan, mutaxassis ta'kidlashicha, mamlakatda ayollar orasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga qaratilgan qonunchilik va boshqa chora-tadbirlar qabul qilinmoqda. Ushbu soha vakillari ma'muriy to'siqlarni kamaytirish, tadbirkorlarni huquqiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, soliq yukini yengillashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarga imtiyozlar taqdim etish, moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish uchun yaratilgan sharoitlardan faol foydalanmoqdalar.

Natijada, so'nggi besh yil ichida O'zbekistonda tadbirkor ayollar soni ikki barobarga ortib, o'z biznesini tashkil qilgan ayollar soni 200 mingdan oshdi. Bunda ularning iqtisodiyot va sanoatning turli sohalaridagi ulushi taxminan 50 foizni tashkil etmoqda.

Uchinchidan, Sh.Nurullaeva qayd etishicha, joriy yilda O'zbekistonda 2 million ayolning bandligini ta'minlash va ulardan 1,3 millionini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish bo'yicha keng ko'lamlı rejalar belgilangan. Mazkur maqsadlarni ro'yobga chiqarish uchun 2025-yilda ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga qo'shimcha ravishda 3,3 trillion so'm mablag' ajratilishi rejalashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq Tadbirkor ayollar kengashi tashkil etilgani muhim qadam bo'lgani alohida ta'kidlandi. Tadbirkorlik sohasida ayollarning o'rnini mustahkamlash, ularning huquqlarini himoya qilish hamda huquqiy, moliyaviy va amaliy yordam ko'rsatish kengash vazifasiga kiradi. U parlamentda ishbilarmon ayollar manfaatlarini bevosita ifoda etish va ularning biznesini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni taklif qilish huquqiga ega.

Forum yakunida ishtirokchilar bu kabi tadbirlarni muntazam o'tkazish mintaqa davlatlari tadbirkor ayollari o'rtasidagi o'zaro aloqalar va hamkorlikni mustahkamlashga, shuningdek, Markaziy Osiyo ayollari uchun yangi iqtisodiy tashabbuslarni ishlab chiqishga xizmat qilishiga ishonch bildirdilar.